XALQ DEPUTATLARI O’RTACHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-iyul VI-78-81-10-143-K/24 O’rtachirchiq tumani

LOYIHA

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq O‘rta Chirchiq tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli qonuniga asosan O‘rta Chirchiq tuman hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 5-apreldagi yig‘ilish bayoni bo‘yicha “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 1-maydagi 1/12-42137-sonli yig‘ilish bayonnomasida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasidan olingan (2024-yil 29-aprel 03/08-4075-sonli javob xati) ekspert xulosasi (2024-yil 26-apreldagi 05-19-01-1241-son)ga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari O‘rta Chirchiq tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘rta Chirchiq tuman hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 5-apreldagi yig‘ilish bayoni bo‘yicha “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 01-maydagi 1/12-42137-sonli yig‘ilish bayonnomasida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasidan olingan (2024-yil 29-aprel 03/08-4075-sonli javob xati) ekspert xulosasi (2024-yil 26-apreldagi 05-19-01-1241-son) va bu yuzasidan O‘rta Chirchiq tuman hokimi o‘rinbosari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari M.Saidxo‘jayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘rta Chirchiq tumanidagi Beshboy mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 2 ta geografik obyekt (2 ta ko‘cha) Qorasuv va Yulduz nomlarini berish taklifi

ma’qullanganligi inobatga olinsin va qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan geografik obyektlarning nomlari **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror loyihasi 2024-yilning “7” iyun sanasidan “22” iyun sanasiga qadar jamoatchilik muhokamasi portalida (ID:100266) jamoatchilik muhokamasidan va tuman Adliya bo‘limining huquqiy ekspertizasidan o‘tkazilganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman statistika bo‘limi (T.Po‘latov), kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (U.Umirzoqov), kadastr palatasi tuman filiali boshlig‘i (F.Rasulov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashiah bo‘limi (M.Po‘latov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi rahbari (R.Djumanova) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan ko‘cha nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni ko‘chalar o‘zgarishi munosabati bilan mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsinlar.

5**.** Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Sultonov) mazkur qaror bilan nomlari o‘zgargan mahalla va ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

6. O‘rta Chirchiq tuman “Beshboy” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (A.Tulibayev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda nom berilgan ko‘chalarga ko‘cha nomi qayd etilgan ko‘rsatkichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

7. Tuman hokimi matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha hokim maslahatchisi (A.Ergashov)ga mazkur qarorning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil etish vazifasi yuklansin.

8. Mazkur qaror imzolangan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari M.Saidxo‘jayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi KASIMOV IXTIYOR RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 15-iyuldagi
VI-78-81-10-143-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘rta Chirchiq tumani Beshboy MFYdagi geografik obyektlarning nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	2	3	4	5	6
1.	Ko‘cha	“Beshboy” MFY	Nomsiz ko‘cha	“Qorasuv”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	“Beshboy” MFY	Nomsiz ko‘cha	“Yulduz”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.